

EKOLOGIK MUAMMOLAR

Ismatullayev Komil Mamasharif o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti 70530201 – Geografiya 1-kurs talabasi

Ismatullayevkomil2201@gmail.com

Tel: 93-798-22-01

Annotatsiya: Mazkur maqolada global ekologik muammolar, ularning paydo bo‘lish sabablari, oqibatlari va insoniyat uchun xavfli bo‘lgan jihatlari o‘rganilgan. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining tanqisligi va bioturli turlarning yo‘q bo‘lishi kabi muammolar tahlil qilinadi. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish yo‘llari va barqaror rivojlanishga erishish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar haqida takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ekologik muammolar, ifloslanish, iqlim o‘zgarishi, suv resurslari tanqisligi, bioturli turlarning yo‘qolishi, barqaror rivojlanish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются глобальные экологические проблемы, причины их возникновения, последствия и опасности, которые они представляют для человечества. Анализируются такие проблемы, как загрязнение окружающей среды, изменение климата, дефицит водных ресурсов и исчезновение биоразнообразия. В статье предлагаются пути решения этих проблем и меры, необходимые для достижения устойчивого развития.

Ключевые слова: Экологические проблемы, загрязнение, изменение климата, дефицит водных ресурсов, исчезновение биоразнообразия, устойчивое развитие.

Abstract: This article examines global environmental problems, the causes of their occurrence, the consequences and dangers they pose to humanity. Problems such as environmental pollution, climate change, water scarcity and loss of biodiversity are analyzed. The article suggests ways to solve these problems and measures necessary to achieve sustainable development.

Keywords: Environmental issues, pollution, climate change, water resource scarcity, biodiversity loss, sustainable development.

Kirish

Ekologik muammolar bugungi kunda global darajadagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib, u nafaqat tabiiy muhitga, balki inson salomatligiga ham jiddiy xavf

tug‘diradi. Industrial rivojlanish va aholining o‘sishi natijasida atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar, kimyoviy moddalar va chiqindilar miqdori sezilarli darajada oshdi. Bu esa iqlim o‘zgarishi, suv va tuproq resurslarining ifloslanishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada ekologik muammolar va ularning oqibatlari atroflicha tahlil qilinib, ularga qarshi samarali chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Maqolada ekologik muammolar bo‘yicha olimlarning ilmiy ishlaridan va statistika ma’lumotlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida ekologik ifloslanish, iqlim o‘zgarishi va bioturli turlarning yo‘q bo‘lishi bilan bog‘liq adabiyotlar o‘rganildi. Maqola yozishda analitik, qiyosiy va statistik tahlil usullari qo‘llanildi. Jumladan, dunyo mamlakatlarida ekologik muammolarga qarshi qabul qilingan chora-tadbirlar o‘rganilib, ularning natijasi tahlil qilindi. Shuningdek, barqaror rivojlanish yo‘lida amalga oshirilayotgan xalqaro dasturlar haqida ma’lumot berildi.

Muhokama va natijalar

Ekologik muammolar, xususan, havoning ifloslanishi va global isish, insoniyat va boshqa jonzotlar uchun o‘ta xavfli oqibatlarga olib kelmoqda. Havodagi uglerod gazining ortishi qutbiy muzliklarning erishi va dengiz sathining ko‘tarilishiga sabab bo‘layotgan bo‘lsa, suv resurslarining kamayishi oziq-ovqat xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bioturli turlarning yo‘qolishi esa ekotizimlarning buzilishiga olib kelmoqda. Shu sababli, ekologik muammolarni hal etish uchun xalqaro hamkorlik va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zarur. Energiya manbalarini qayta tiklash va chiqindilarni qayta ishslash kabi amaliy tadbirlar ijobiy natijalar bermoqda.

Ekologik muammolar global miqyosda ko‘plab ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muhitga ta’sir ko‘rsatmoqda. Havoning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining kamayishi va tuproqning degradatsiyasi natijasida ko‘plab hududlarda insonlar hayot sifati yomonlashmoqda. Xususan, havodagi zararli moddalar miqdorining ortishi nafas yo‘llari kasalliklarini ko‘payishiga sabab bo‘lib, yiliga millionlab insonning salomatligi va hayoti uchun xavf tug‘diradi. Buning oqibatida nafas olish bilan bog‘liq kasalliklar, masalan, bronxit, astma va o‘pka saratoni kabi kasalliklar soni ortmoqda.

Iqlim o‘zgarishi jahon miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni kuchaytirib, turli hududlarda qurg‘oqchilik, suv toshqinlari va ekstremal ob-havo sharoitlarini keltirib chiqarmoqda. Bu esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishini

kamaytirib, oziq-ovqat taqchilligi va narxlarning ko‘tarilishiga olib keladi. Ayniqsa, Afrika, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlarida oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar sezilarli darajada kuchaymoqda. Shu bilan birga, iqlim o‘zgarishi tufayli qutbiy muzliklarning erishi dengiz sathining ko‘tarilishiga va qirg‘oqbo‘yi hududlarda suv toshqinlari xavfini oshishiga olib kelmoqda.

Suv resurslarining tanqisligi ham jiddiy ekologik muammolar qatoriga kiradi. Bugungi kunda 2 milliarddan ortiq odam toza ichimlik suvi yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Suvning ifloslanishi esa ekotizimlarning buzilishiga, baliqchilik va qishloq xo‘jaligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Suv resurslaridan noto‘g‘ri foydalanimish va ifloslanish natijasida ko‘plab davlatlarda ijtimoiy va iqtisodiy inqirozlar yuzaga kelmoqda. O‘rta Osiyo hududidagi Orol dengizining qurishi va uning atrofida ekologik falokat vujudga kelishi bunga yaqqol misoldir. Shu sababli, suv resurslarini oqilona boshqarish, ularni tejash va toza ichimlik suvi bilan ta’minalash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.

Bioturli turlarning yo‘qolishi ham bugungi ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ko‘plab o‘simlik va hayvon turlari yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida turibdi. O‘rmonlarning kesilishi, tabiiy yashash muhitlarining yo‘q qilinishi, noqonuniy ov qilish va iqlim o‘zgarishi bu muammoning asosiy sabablari hisoblanadi. Bioturli turlarning yo‘qolishi ekotizimlarning muvozanatini buzib, oziq-ovqat zanjirini izdan chiqaradi va keljak avlodlar uchun tabiiy resurslarning kamayishiga olib keladi. Shu sababli, biologik xilma-xillikni saqlab qolish, milliy va xalqaro darajada muhofaza qilish loyihalarini kengaytirish hamda ekologik ta’lim va targ‘ibotni kuchaytirish lozim.

Shuningdek, urbanizatsiya va sanoat rivojlanishi natijasida chiqindilar miqdorining oshishi atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazmoqda. Plastmassa chiqindilarining dengiz va okeanlarga tashlanishi dengiz jonzotlariga xavf tug‘dirib, dengiz hayvonlari orasida o‘lim holatlarini ko‘paytirmoqda. Aholining ekologik madaniyatini oshirish va chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish zarur. Xususan, Yevropa Ittifoqi va AQShda chiqindilarni qayta ishlash darjasini sezilarli darajada yuqori bo‘lib, bu ijobiy natijalarga olib kelmoqda. O‘zbekistonda esa chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha ishlanayotgan loyihalarini kengaytirish, aholining bu boradagi madaniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro miqyosda ekologik muammolarga qarshi kurashishda ko‘plab tashabbuslar qabul qilinmoqda. Masalan, Parij iqlim kelishuvi doirasida global

haroratni 2 darajadan yuqoriga oshirmaslik bo‘yicha kelishuvga erishilgan. Shuningdek, 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida ekologik barqarorlikni ta’minlash, tabiat resurslarini asrash va global isishni sekinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Ushbu tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va mahalliy darajada joriy etish orqali ijobjiy natijalarga erishish mumkin.

1. Iqlim o‘zgarishi:

Iqlim o‘zgarishi global ekologik muammolarning eng asosiyalaridan biri hisoblanadi. Atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarining ko‘payishi natijasida global harorat oshib, qutbiy muzliklar erimoqda va dengiz sathining ko‘tarilishiga olib kelmoqda. Bu esa tabiiy ofatlar sonining ko‘payishi, qurg‘oqchilik, o‘rmon yong‘inlari va boshqa salbiy ekologik oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammo xalqaro darajada Parij iqlim kelishuvi orqali tartibga solinmoqda. Parij kelishuvi 2015-yilda imzolangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi global haroratning 2 darajadan ortib ketishini oldini olish va issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirishdan iboratdir. 195 ta davlat ushbu kelishuvga qo‘shilgan bo‘lib, mamlakatlar iqlim o‘zgarishi bilan kurashish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini qabul qilgan.

2. Atmosferaning ifloslanishi:

Havoning ifloslanishi nafaqat ekologik, balki sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq muammo hamdir. Havodagi zararli moddalar (SO_2 , CO_2 , NO_x va boshqalar) inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Xalqaro darajada bu muammoni hal qilish uchun 1979-yilda qabul qilingan "**Transchegaraviy havo ifloslanishini uzoz masofaga ko‘chishi bo‘yicha Konvensiya**" (UNECE LRTAP) qabul qilingan bo‘lib, u ifloslanish manbalarini nazorat qilish, emissiyani qisqartirish va atrof-muhit monitoringini amalga oshirishni maqsad qilgan.

3. Suv resurslarining kamayishi va suv tanqisligi:

Toza ichimlik suvi bilan ta’minlash global ekologik muammolardan biri bo‘lib, suv resurslari miqdorining kamayishi bir qator ijtimoiy va iqtisodiy inqirozlar keltirib chiqarmoqda. Suv resurslarining ifloslanishi va noto‘g‘ri boshqarilishi natijasida suv tanqisligi xavfi ortib bormoqda. 1992-yilda qabul qilingan **BMTning Suv resurslari bo‘yicha Konvensiyasi** (Water Convention) suv resurslarini muhofaza qilish va oqilona foydalanish masalalariga qaratilgan. Ushbu konvensiyaga qo‘shilgan davlatlar suvdan foydalanishda birgalikda boshqaruvni amalga oshiradi.

4. Biologik xilma-xillikning yo‘qolishi:

Tabiiy yashash muhitlarining yo‘q qilinishi, noqonuniy ov va o‘rmonlarning kesilishi biologik xilma-xillikning kamayishiga olib kelmoqda. Bu muammo xalqaro darajada 1992-yilda qabul qilingan **Biologik xilma-xillik bo‘yicha Konvensiya** (Convention on Biological Diversity) orqali tartibga solinmoqda. Ushbu konvensiya biologik xilma-xillikni saqlash, undan barqaror foydalanish va biologik resurslarni adolatli taqsimlashni ko‘zda tutadi. Shuningdek, 2010-yilda qabul qilingan **Nagoya protokoli** ham ushbu yo‘nalishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar:

Maqola xulosasida ekologik muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar beriladi:

1. Energiya manbalarini qayta tiklanadigan energiya turlari bilan almashtirish.
2. Chiqindilarni qayta ishslash va ularni kamaytirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.
3. Xalqaro ekologik konvensiyalarga amal qilish va ularni qo‘llab-quvvatlash.
4. Mahalliy darajada atrof-muhitni muhofaza qilish siyosatini rivojlantirish va aholining ekologik madaniyatini oshirish.
5. Bioturli turlarni saqlab qolish maqsadida milliy va xalqaro loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown, L. R. (2011). *World on the Edge: How to Prevent Environmental and Economic Collapse*. W.W. Norton & Company.
2. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). (2014). *Climate Change 2014: Impacts, Adaptation, and Vulnerability*. Cambridge University Press.
3. United Nations Environment Programme (UNEP). (2019). *Global Environment Outlook 6*. Nairobi: UNEP.
4. World Health Organization (WHO). (2018). *Air Pollution and Child Health: Prescribing Clean Air*. Geneva: WHO.
5. Shiklomanov, I. A. (1993). *World Water Resources: A New Appraisal and Assessment for the 21st Century*.